

“Transport ilmiy-tadqiqot markazi” MCHJning rivojlanish strategiyasi

O'tgan yillar tahlilidan kelib chiqib 2024-yilda Markaz tomonidan quyidagi vazifalarni yanada rivojlantirish orqali asosiy faoliyat samaradorligini oshirish rejalashtirilgan. Jumladan:

Ilmiy-tadqiqotlar sohasida amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan Jamoat transportida yo'lovchilarni tashishni amalga oshirishda aholiga transport xizmatlari ko'rsatish Minimal transport standartini joriy qilish bo'yicha Urganch shahrida aprobat siya ishlari amalga oshirilmoqda. Xorazm viloyati transport boshqarmasi tomonidan birlamchi ma'lumotlar olindi va bugungi kunda tahlil ishlari amalga oshirilmoqda.

Transportda tajriba-sinov va sertifikatlashtirish laboratoriyasi:

1. Markaz laboratoriyasi **2024-yilda** korxonada faoliyatini yaxshilash va faoliyat turini amalga oshirish maqsadida, **“Taxografni ta'mirlash sozlash va kalibrlash yo'nalishi”**ni tashkil qilish, bunda, **OPTIMO 2** planshet qurilmasini xarid qilish va mazkur laboratoriya yo'nalishini **2024-yilning II-chorak** yakunlariga qadar ishga tushirish rejalashtirilgan.

Shuningdek, Transportda tajriba-sinov va sertifikatsiyalashtirish laboratoriyasida **“SPG-3** turdagi gazballonlarni sinovdan o'tkazish” yo'nalishini ochishni tashkillashtirish ko'zda tutilmoqda.

2. Bugungi kunda, **SPS laboratoriya** faoliyatini yanada rivojlantirish maqsadida, Toshkent viloyati, Zangi ota tumanida **“Magistral Diesel service” MCHJ**ga tegishli bino hududini ijaraga olish (shartnoma) ishlari amalga oshirilmoqda.

Mazkur belgilangan vazifalarni joriy yilning **I-chorak** yakunlariga qadar yakunlash hamda **SPS laboratoriya** faoliyatini to'liq quvvatlarda ishga tushirish rejalashtirilgan.

STG-3 turidagi kompozit gaz ballonlarini sinash laboratoriyasini tashkil qilish bo'yicha:

2024-yil mobaynida, **STG-3** turidagi kompozit gaz ballonlarini sinash laboratoriyasini tashkil qilish ustida ishlar olib borilishi rejalashtirilmoqda. Shuningdek, kompozit gaz ballonlarini sinash uskunalarini ishlab chiqaruvchi xorijiy kompaniyalar xaqida ma'lumotlar to'planib, ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan sinash uskunalari tahlil qilish rejalashtirilgan.

Bugungi kunga qadar, Xitoy Xalq Respublikasining **“SHINEEAST”**, **“SLD Cylinder”** va **“SUNCENTER”** kompaniyalari, Rossiya Federatsiyasining **“IIKTEBA”** va Vengriyaning **“PWENT”** kompaniyalari bilan muzokaralar olib borilib, ularning takliflari o'rganib chiqilib, kelgusida hamkorlik qilish bo'yicha muzokaralar olib borilmoqda.